ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

# LEYKOTSITLARNING IMMUN TIZIMIDAGI ROLI VA AHAMIYATI.

**Abduraxmanova Iroda O'tkirbek qizi**
Alfraganus Universiteti
Tibbiyot fakul'teti Tibbiyot kafedrasi Davolash ishi yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: v.b.dotsent **Sayfiyeva X.Dj.**
irodaabduraxmanova6 @gmail.com

**Anotatsiya**: Ushbu maqolada qon va uning tarkibidagi leykotsitlarning inson organizmidagi o'rni va ahamiyati haqida bayon etilgan. Leykotsitlarning qondagi miqdori oshib yoki kamayib ketishi natijasida kelib chiqadigan patologik holatlar va kasalliklarni oldini olish va davolash choralari haqida ma'lumotlar berilgan. Leykositlar organizmni infeksiyalardan himoya qiluvchi muhim hujayralar sifatida qaraladi. Ularning turlari, asosiy funksiyalari, hamda immunitet jarayonlaridagi ishtiroki haqida batafsil ma`lumot beriladi. Maqola oddiy o`quvchi uchun tushunarli tilda yozilgan bo`lib, biologiya va tibbiyotga qiziquvchilar uchun foydalidir.

**Kalit so`zlar:** Qon, leykositlar, granulositlar, agranulositlar, fagotsitoz, leykositoz, makrofaglar, leykopeniya, leykogramma, leykopoez, immun tizimi, himoya mexanizmi, infeksiya, limfosit, fagotsit.

Qon, limfa va to`qima suyuqligi birgalikda organizmning ichki muhitini hosil qiladi. Qon miqdori voyaga yetgan organizmda tana og`irligining 7 foizini tashkil etib, o`rtacha hisobda organizmda 5,5 litr qon bo`ladi. Inson organizmi murakkab, mukammal, himoya tizimiga ega. Bu tizim, ya`ni, immun tizimi, organizmi tashqi va ichki xavf-xatarlardan, xususan, bakteriyalar, viruslar, zamburug`lar, hatto o`zgarib ketgan hujayralardan himoya qiladi. Ushbu murakkab tizimda leykositlar yoki oq qon tanachalari asosiy himoyachi sifatida faoliyat ko`rsatadi.

Leykositlar qon, limfa, va boshqa tana suyuqliklarida harakat qilib, har qanday "begona" zarrachaga qarshi kurash olib boradi. Ular turli shakl va funksiyalarga ega bo`lib, immunitetning tug`ma va orttirilgan shakllarida muhim rol o`ynaydi.

Qonning shaklli elementlari mavjud bo'lib ularning qatoriga qizil qon tanachalari-eritrositlar, oq qon tanachalari-leykotsitlar va qon plastinkalari-trombositlardan iborat. Ulardan biz leykotsitlar haqida gaplashib o'tamiz. Leykositlar-oq qon tanachalari va hayvonlar qonidagi rangsiz hujayralar, qonning yadroli shaklli elementlari. Yadrosining shakli har xil, shunga ko'ra, tayoqcha yadroli, segment yadroli va monositlarga ajratiladi. Leykositlar qon tomir o'zanidan chiqib hujayralararo bo'shliqda o'zicha harakat qila oladi. Ular organizmning yot jismlar kirgan joyiga yetib kelib, soxta oyoqchalar chiqarib, uni hamma tomondan o'rab oladi va yutib yuboradi va bu fagotsitoz deb ataladi.

Fagotsitozda faqat leykotsitlargina emas, balki organizmdagi boshqa hujayralar ham ishtirok etadi. Bunday hujayralar makrofaglar deb ataladi. Leykositlar, makrofaglar,qon va to'qimalardagi boshqa faol moddalar faqat bakteriyalar hamda kasallik tug'diruvchi agentlarni yutib yubormay, balki organizmni jarohat yoki kasallik tufayli nobud bo'lgan hujayralardan, toksinlardan ham tozalaydi.

Leykositlar suyak ko'migi, limfa tugunlari va taloqda hosil bo'ladi. Donali leykotsitlar-granulotsitlar va donasiz-agranulotsitlar farq qiladi. Leykositlarning bo'yalish xususiyatiga qarab, ular kislotali bo'yoq-eozinofillar, asosli-bazofillar va neytral-neytrofillarga bo'linadi. Agranulositlarga limfositlar va monotsitlar kiradi. Limfositlar – immun tizimning "xotirasi"ni saqlovchi va maxsus himoya reaksiyalarini tashkil qiluvchi hujayralardir. Ular T-limfositlar, B-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



limfositlar va killer hujayralarga bo`linadi. Monotsitlar – yirik fagotsitlar bo`lib, ular to`qimalarga kirgach, makrofaglarga aylanadi va bakteriyalar, o`lik hujayralarni “tozalash” ishini bajaradi.

Inson organizmini har xil zararli mikroorganizmlardan, viruslardan, parazitlardan va hatto o`zgarib ketgan (masalan, saratonli) hujayralardan himoya qilishda leykositlar asosiy o`rinni egallaydi. Ular immun tizimining tug`ma va orttirilgan qismlarida faol ishtirok etadi. Tug`ma immunitet – bu inson tug`ilganidanoq, mavjud bo`lgan, tez va umumiy himoya reaksiyasidir. Neytrofillar, makrofaglar (monotsitlar) kabi leykositlar bu bosqichda muhim rol o`ynaydi. Orttirilgan immunitetdagi roli esa patogen bilan takroran uchrashganda yuzaga keladi va aniq mo`ljallangan himoyani ta`minlaydi.

Leykositlar yallig`lanish jarayonining boshlanishi va davom etishida ham ishtirok etadi. Masalan, gistamin, interferonlar kabi moddalarni ajratib boshqa immun hujayralarni jalb qiladi va ularning faolligini tartibga soladi.

Shuningdek, ba`zi leykositlar “immun xotira”ni shakllantiradi – bu organizmni kelajakdagi hujumlarga tayyorlaydi. Aynan shu xususiyat vaksinatsiyaning samaradorligini ta`minlaydi.

Leykogramma yoki leykositlar formulasi deb ham ataladi. Bu mikroskop ostida bo’yalgan qonni hisoblash yo’li bilan aniqlanadigan, har xil turdagi leykotsitlarning foizli ko’rsatkichidir.

Leykopoez-bu gemopoezning bir qismi bo’lib unda leykositlar kata yoshdagi insonlarning suyak iligi va timus, jigar kabilarda hosil bo’ladi. Leykopoez ikki yo’ldan iborat; granulosit va agranulositlarning hamda limfositlarning shakllanishi. 1mkl qonda, odatda, 4000-9000 leykotsit bo’ladi. Ular soni kun bo’yi o’zgarib turadi, masalan, ertalab leykotsitlar kam bo’lsa, tushdan keyin ko’payadi.

Leykotsitlar sonining ortib ketishi 9000dan ortiq-leykotsitoz, kamayishi 4000dan kam-leykopeniya deyiladi. Leykotsitozda, ko’pincha, qon depolari-taloq, o’pka, qizil ilikdagi leykotsitlarning u yerdan chiqib harakatdagi qonga o’tishi kuzatiladi. Leykotsitoz infeksiya, stress, jarohat, allergiya, va boshqa kasalliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Davolash choralari esa dastlab, asosiy sababini bartaraf etish, immunitetni tartibga solish, qon suyuqligini nazorat qilish, diyet va turmush tarzini o’zgartirishdan iborat. Leykopeniyada esa immunitet pasayishi, suyak iligi zararlanishi, virusli infeksiyalar, kimyoterapiya yoki ozuqa yetishmovchiligi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Davolash usullari esa sababini aniqlash va bartaraf etish, leykositlarni oshiruvchi preparatlar, immun tizimini mustahkamlash va infeksiyalardan himoyalanishdan iborat.

Leykositlar-immun tizimining asosiy himoya mexanizmlaridan biri bo’lib, organizmni infeksiya, virus, bakteriya va boshqa zararli omillardan himoya qiladi. Ular patogenlarni aniqlash, yo’q qilish va yallig’lanish jarayonini boshqarish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Ularning yetarli miqdorda bo’lishi sog’lom immunitet uchun muhim, kam yoki ortiqcha bo’lishi esa turli kasallilarni keltirib chiqishi mumkin. Tug`ma va orttirilgan immunitetda ishtirok etuvchi bu hujayralar yallig`lanish jarayonini boshqarish, antitana ishlab chiqarish, fagositoz va virusli hujayralarni yo`q qilish kabi murakkab vazifalarni bajara oladi.

Leykositlarning bu qadar keng ko`lamli faoliyati inson sog`lig`i uchun ulkan ahamiyatga ega bo`lib, ularning yetishmovchiligi yoki noto`g`ri ishlashi turli immun kasalliklari, allergiyalar yoki autoimmun reaksiyalariga olib keladi. Shuning uchun ham ularning tuzilishi, vazifalari va immun tizimidagi roli haqida tushunchaga ega bo`lish har bir kishi uchun muhimdir.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



VOLUME-5, ISSUE-5

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Q.R.To'xtayev, F.X.Azizova, M.A.Abdurahmonov, E.A.Tursunov, K.I.Rasulev, M.X.Ramatova ''Gistologiya, sitologiya va embriologiya'' Toshkent-2022
2. S.To'ychiyev, N.Toshmanov ''Sitologiya, embriologiya va gistologiya'' Toshkent-2005
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/LeykotsitlarSahifa
4. Abbas A.K., Lichtman A.H.., Pillai S. *Cellular and Molecular Immunology.* Elsevier, 2022.
5. Alberts B. et al. *Molecular Biology of the Cell*. Garland Science, 2021.
6. Tortora G.J., Derrickson B. *Principles of Anatomy and Physiology.* Wiley, 2020.
7. O`zbekiston Respublikasi Tibbiyot akademiyasi ma`ruzalar to`plami.
8. Internet manbalari: WHO.int, NCBI.nlm.nih.gov, MedlinePlus.gov